

**TARBIYA JARAYONINING MOHIYATI, MAZMUNI VA TARBIYA
JARAYONINI TEXNOLOGIYALASHTIRISH ASOSLARI**

Qalandarova Oysuluv Bahriddin Qizi
Alfraganus Universiteti, 2-Kurs Magistri

Annotatsiya. Ta'lim-tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Shuni unutmashimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qandaybo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq.

Maqolada tarbiya jarayonining mohiyati, mazmuni va tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish asoslari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Tarbiya, material, maqsad, mazmun, shakl, metod, vosita, tadbir, ssenariy, faoliyat, jarayon.

**СУЩНОСТЬ, СОДЕРЖАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО
ПРОЦЕССА И ОСНОВЫ ТЕХНОЛОГИЗАЦИИ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА**

Аннотация. Образование является продуктом сознания, но в то же время оно является важнейшим фактором, определяющим уровень сознания и его развитие, то есть формирует и обогащает духовность народа. Мы не должны забывать, что фундамент нашего будущего создается в сферах знаний, иными словами, будущее нашей нации зависит от образования и воспитания наших детей сегодня.

В статье раскрыты сущность, содержание образовательного процесса и основы технологизации образовательного процесса.

Ключевые слова. Образование, материал, цель, содержание, форма, метод, инструмент, событие, сценарий, деятельность, процесс.

**THE ESSENCE, CONTENT OF THE EDUCATIONAL
PROCESS AND THE BASICS OF TECHNOLOGIZATION
OF THE EDUCATIONAL PROCESS**

Annotation. Education is a product of consciousness, but at the same time it is the most important factor determining the level of consciousness and its development, that is, it forms and enriches the spirituality of the people. We must not forget that the foundation of our future is created in the areas of knowledge, in other words, the future of our nation depends on the education and upbringing of our children today.

The article reveals the essence, content of the educational process and the basics of technologization of the educational process.

Keywords. Education, material, purpose, content, form, method, tool, event, scenario, activity, process.

Kirish

Bugungi kunda prezidentimiz tashabbusi bilan bolalar haq huquqlarini himoya qilish ularni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalash, voyaga yetmagan bolalarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rag‘batlantirish va ularning yuqori darajada ta‘lim tarbiya olishini ta‘ninlash borasida izchil hamda tizimli ishlar olib borilmoqda. Bu haqda so‘z borganda avvalo ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan islohatlarni alohida e‘tirof etish lozim. Zero, keyingi davrda ayni sohaga tadbqiq etilayotgan shiddatli yangilanishlar davlatimiz tomonidan bolalarga tug‘ilganidan boshlab g‘amxo‘rlik qilishga yuksak e‘tibor qaratilayotganing yana bir yaqqol dalilidir.

Erkin fuqarolik, huquqiy demokratik jamiyat qurishda ta‘lim-tarbiya hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ma‘naviyatni shakllantirishga bevosita ta‘sir qiladigan yana bir muhim hayotiyomil — bu ta‘lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ma‘lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo‘lmish ilm-u ma‘rifat, ta‘lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. Albatta, ta‘lim-tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya‘ni xalq ma‘naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Shuni unutmashimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qandaybo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta‘lim va tarbiya olishiga bog‘liq. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko‘rish zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil in-sonlar etib voyaga yetkazish ta‘lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta‘lim va tarbiya ishini uyg‘un holda olib borishni talab etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqillikka erishgan dastlabki yillardayoq yosh avlodni tarbiyalashda aniq maqsadlar belgilab olindi. 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonunida ko‘rsatilgan vazifalarga asosan tarbiyaning asosiy maqsadi – erkin, ijodkor, mustaqil fikrga ega bo‘lgan komil inson va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat [1]. Ushbu maqsadga erishish yo‘lidagi asosiy vazifa bo‘lajak kadrlar salohiyatini har tomonlama yuksaltirish, ularda madaniyat va ma‘naviyat unsurlarini shakllantirish, ya‘ni, har bir shaxsning kasbiy bilimlarni puxta egallashda aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, iqtisodiy, ekologik, huquqiy, siyosiy jihatdan ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishdan iborat.

Respublikamizda maktabgacha ta‘lim bosqichida bolalarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash, erta kasb-hunarga yo‘naltirish, maktabgacha ta‘lim da o‘yin metodlarini qo‘llash orqali

bolalar nutqi va savodxonligini rivojlantirish, tasviriy faoliyat metodikasini rivojlantirish masalalari F.Qodirova [8], X.Sanaqulov [7] va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Yoshlarda kasbiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirishning innovatsion yo'nalishlari M.Mirsoliyeva va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish-aniq maqsadga va ijtimoiy g'oyaga asoslangan hamda talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik-psixologik faoliyatning tashkiliy texnik jihatdan uyushtirilishi demakdir [9]. Ta'lim jarayonidan farqli o'laroq, tarbiya, jarayonini texnologiyalashtirishda ushbu jarayonning samarasini qisqa muddat oralig'ida ko'ra olish imkoniyati yo'q. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, talaba va o'qituvchi o'rtasida yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan ziddiyatlar tarbiyaviy jarayonni texnologiyalashtirishga nisbatan ijodiy va mas'uliyatli yondoshish zarurligini taqozo etadi. Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishda mazkur jarayonni loyihalashtirish hamda uning asoslarini belgilash muhim ahamiyatga ega. Tarbiya jarayonini loyihalashtirishning asoslari qatoriga:

- 1) tarbiyaviy tadbir mavzusiga doir materiallarni yig'ish;
 - 2) tarbiyaviy tadbirning maqsadi va vazifalarini belgilash;
 - 3) tarbiyaviy tadbirning mazmunini ishlab chiqish;
 - 4) tarbiyaviy tadbirning shakli, metodlari va vositalarini tanlash;
 - 5) tarbiyaviy tadbirni tashkil etish va o'tkazish (davomiyligi) vaqtini belgilash;
 - 6) tarbiyaviy tadbir ssenariysini ishlab chiqish;
 - 7) talabalar faoliyatini nazorat qilish, shuningdek, ularning faollik darajalarini norasmiy (talabalarni bu haqida xabardor qilmasdan) baxolash;
 - 8) loyihani amaliy faoliyatda qo'llash;
 - 9) tarbiyaviy tadbirni amaliy jixatidan tashkil etish jarayoni;
 - 10) tarbiyaviy tadbirning o'tkazilish holati (samarali yoki samarasiz, muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz tashkil etilganligi)ni muxokama qilish va yakuniy xulosa chiqarish kiradi.
- Oliy o'quv yurtlari amaliyotidan ma'lumki, uzoq yillar davomida mazkur muassasada faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning aksariyati tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishga nisbatan "Tarbiyaviy ishlar rejasida belgilangan tadbirlarni o'tkazishga majburman" qabilida yondoshib kelganlar. Ularning asosiy e'tibori o'zlari rahbarlik qilayotgan guruh talabalarini avvaldan tayyorlangan ssenariyni yod olish va unga qat'iy amal qilishga majburlash, shuningdek, "Oliy maktab ma'muriyati hamda jamoasi oldida izza bo'lib qolishga yo'l qo'ymaslik" tamoyiliga muvofiq tarbiyaviy tadbirni uyushtirishga qaratilgan edi. [5]

Endilikda tarbiyaviy tadbirlarning o'tkazilishiga nisbatan bunday yondoshuvlardan voz kechish maqsadga muvofiq. Zero, tayyor senariy asosida muayyan tadbirni tashkil etish jarayonida uning asosiy sub'ektlari bo'lgan talabalar faol ishtirokchi va tadbir natijasini belgilovchi shaxs sifatida emas, balki oddiy ijrochi tarzida ko'zga tashlanadilar.

Tahlil va natijalar

Tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Tarbiya

jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi.

Keng ma'noda tarbiya - shaxsga jamiyatning ta'sir etishi, ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Mazkur holatda tarbiya ijtimoiylashtirish bilan uyg'unlashadi.

Tor ma'nodagi tarbiya - pedagogik jarayon sharoitida ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchi- larning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi. Ushbu holatda pedagoglarning tarbiyaviy faoliyati tarbiyaviy ish deb ataladi.

Tarbiya mazmuni deganda, qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqlikda ta'lim oluvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, e'tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi.

Tarbiya mazmunida oldinga qo'yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, shaxs xulq-atvori hamda sifatleri mohiyati aks etadi. Tarbiya mazmuni shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, kishilik munosabatlari mohiyati va darajasi, shuningdek, jamiyat mafkurasi g'oyalari asosda belgilanadi. Zamonaviy tarbiya mazmunida quyidagi tamoyillar yotadi:

- maqsadga qaratilganligi va g'oyaviy yo'nalganligi;
- tarbiyaning insonparvarlashuvi;
- tarbiyaning hayot, mehnat bilan bog'liqligi;
- tarbiyaga yaxlit(kompleks) yondashuv;
- jamoada tarbiyalash va jamoaga suyanib ish ko'rish tamoyillari;
- o'qituvchilar, jamoat tashkilotlari va oilaning talab hamda tarbiyaviy ta'sirlarining birligi;
- yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- jarayonining tizimligi va uzluksizligi;
- shaxsga talabchanlik bilan hurmatni birga qo'shib olib borish va boshqalar.

Xulosa va takliflar

Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni bo'lib, har qanday tuzum va zamonda ijtimoiy munosabatlar mazmunini aniqlash, ularni tashkil etish asosi bo'lib kelgan.

Yosh avlod tarbiyasi turli makon va zamonda muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yish jarayonida bir qator vazifalar hal etiladi. Tarbiyaning maqsad va vazifalari ijtimoiy tuzum mohiyati, taraqqiyot darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, jamiyat fuqarolarining dunyoqarashi, intilishlari, orzu-niyatlari asosida belgilanadi.

Tarbiya jarayonining xususiyatlarini chuqur anglash va ularni inobatga olgan holda tarbiyani tashkil etish oldinga qo'yilgan maqsadga erishish, shuningdek, bu boradagi vazifalarni ijobiy hal etish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Ta’lim to‘g‘risida. 2020 yil 23 sentabr. O‘RQ-637-son.
2. Azizxo‘jaeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. 2006.B-154
3. Ishmuxammedov R.J. «Innovatsion texnologiyalar yordamida o‘qitish samaradorligini oshirish yo‘llari . 2000.B-213
4. Mirsoliyeva M.T. Oliy ta’lim tizimi pedagog kadrlari kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirishga zamonaviy yondoshuvlar // O‘rta maxsus va oliy ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan pedagog kadrlarning kasbiy kometentligini takomillashtirish. Buxoro, 2015. – S. 8.
5. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi 2000.B-256
6. Saidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar . Moliya nashr. 2003.B-197.
7. Sanaqulov H.R. Kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining kasb hunarga qiziqishlarini mehnat an‘analari asosida tarbiyalash. pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. Avtoref.- T., 2001. - 18 b.
8. Qodirova F., Qodirova R. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – T., Istiqlol. 2006. – 248 b.
9. Sharopova Z.F. Ta’lim texnologiyalari.O‘quv qo‘llanma . Toshkent-2019. “Navro‘z nashriyoti”. B-298